

## O'ZBEK TILIDAGI SLENGLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

**Pardaeva Baxtigul Abduraubovna**

Toshkent viloyati Bekobod shaxar

1-umumiy o'рта talim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10806231>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada slenglarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Aytilgan fikrlar misollar bilan dalillanadi. Slenglar zamonaviy tilda yashovchi so'zlar bo'lib, adabiy tilda foydalanish uchun nomaqbul deb hisoblanadi. Shuningdek, slenglarning ko'p so'zlari va iboralari keng ommaga tushunarsiz bo'ladi. Chunki, aksariyat slenglar ko'chma ma'noda qo'llaniladi va ular ko'pincha chet tillaridan, ularning dialekt va jargonlaridan o'zlashtirilgan bo'ladi. O'zbek tilining slenglar lug'atini yaratish tilimizning boy leksikasini va tilimizdagi xilma-xillikni namoyon qiladi. Shuningdek, tilimizni sotsial jihatdan tahlil qilish fandagi yangi ilmiy xulosalar tomon yetaklaydi. Bu boradagi ilk qadam slenglar va boshqa sotsial leksikaning ilmiy chegarasini belgilab olib, uning alohida xususiyatlarini belgilab olishdir.

**Kalit so'zlar:** Sotsiolingvistika, sotsiolektlar, jargon, argon, sleng, so'zlashuv nutqi, til leksikasi.

### SLANGS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THE REASONS FOR THEIR ORIGIN

**Abstract.** This article examines the specific characteristics of slangs. The stated points are proved by examples. Slangs are words that live in the modern language and are considered inappropriate for use in literary language. Also, many slang words and phrases are incomprehensible to the general public. Because most slangs are used in a figurative sense, and they are often borrowed from foreign languages, their dialects and slangs. Creating a dictionary of slangs of the Uzbek language shows the rich lexicon of our language and the diversity of our language. Also, social analysis of our language leads to new scientific conclusions in science. The first step in this regard is to determine the scientific boundaries of slangs and other social lexicon and to define its special features.

**Key words:** Sociolinguistics, sociolects, jargon, argon, slang, colloquial speech, language lexicon.

### СЛЕНГИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются специфические особенности сленгов. Изложенные положения подтверждаются примерами. Сленги – это слова, которые живут в современном языке и считаются неподходящими для использования в литературном языке. Кроме того, многие жаргонные слова и фразы непонятны широкой публике. Потому что большинство сленгов употребляются в переносном смысле, и они часто заимствованы из иностранных языков, их диалектов и сленгов. Создание словаря сленгов узбекского языка показывает богатый словарный запас нашего языка и разнообразие нашего языка. Также социальный анализ нашего языка приводит к новым научным выводам в науке. Первым шагом в этом направлении является определение научных границ сленга и другой социальной лексики и определение ее особенностей.

**Ключевые слова:** Социоллингвистика, социолекты, жаргонизмы, аргон, сленг, разговорная речь, языковая лексика.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalar, jargonlar, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarni tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. O'tgan davr mobaynida davlat tilining qo'llanish doira, hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirilayapti.

O'zbekiston Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda hech shubhasiz". Istiqloq yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgan jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Bugungi kunda dunyoda mavjud bo'lgan tillarning barchasida sotsiollashuv jarayoni izchil amalga oshmoqda va sotsiolingvistika nomli maxsus tilshunoslik yo'nalishi aynan tilning mana shu jihati bilan shug'ullanadi. "Sotsiolekt termini lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. U sotsio- jamiyatga bo'lgan munosabat va dialekt so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, rus tilidagi "социальный диалект" (ijtimoiy dialekt) birikmasining qisqargan shaklidir. Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Standart tildan farqli o'laroq, sotsiolektida ba'zi o'rinlarda chetga chiqish mumkin. Til ham xuddi tashqi ko'rinish singari sinflar haqida guvohlik beradi" [1].

Sotsiolektlar turli ijtimoiy guruhlar tomonidan faol qo'llaniladigan, jonlilik, ichki yashirin munosabatni ifodalay olish kabi xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlardir. Sotsiolektlarga argo, jargo, sleng kabi so'zlar mansubdir. Slenglar til iste'molchilari tomonidan qo'llanilib, jonli so'zlashuv nutqi bilan bog'liq bo'lgan, yozma nutqda esa umuman foydalanilmaydigan, biroz hazil, kinoya, ironiya ma'no atkashini o'zida qamrab olgan, ma'lum ijtimoiy guruh (asosan yoshlar) nuqtida faol qo'llaniladigan so'zlardir. Ayrim manbalarda slenglar yoshlar nutqida faol qo'llaniluvchi so'zlar deb ta'riflanib, zamonaviylik uning asosiy belgisidir deyiladi. Tilda qo'llanilayotgan ayrim so'zlar vaqtlar o'tishi, avlodlar almashinuvi bilan ularning tildan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira olmaydi va yangi avlod (yoshlar) ma'lum ma'noda o'zlarining "til muhiti" ni shakllantirib oladi. "Sleng tushuniladi, ammo tushuntirib berilishi qiyin. Slenglar o'ziga xos yangi so'zlarni bizga namoyon qiladi" [2].

Sleng ("slang" – ingliz tilidan olingan bo'lib jargon, oddiy, og'zaki leksikaga xos so'zlar"), umumiy sleng, maxsus sleng (jargon va argon maxsus so'zlar) hamda vulgarizm (qo'pol so'zlar) haqida so'zdir. Har bir tildagi uslub turlari uchun umumiy bo'lgan shu tilning umumiy lug'at fondi, shakllar va sintaktik qurilmalar, erkin va turg'un birikmalar bo'ladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy adabiy tilga birlashtiradi. So'zlashuv nutqining dolzarb harakterdagi mazmunini shakllantirish uchun ushbu uslubga xos fonetik, leksik, grammatik normalardan o'rinli foydalanish lozim bo'ladi. Adabiy tilning stilistik me'yorlari til birliklarining nutqda sharoit, ko'zda

tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud.

Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosidir. Sleng-so'zlashuv nutqi dunyo tillarining hammasiga xos hodisadir. Har qanday til jamiyatga aloqador va jamiyatdan tashqarida o'ziga, alohida rivojlana olmaydi. Til, avvalombor, jamiyatimiz odamlarning o'zaro muloqot vositasidir, shu sababli jamiyat-odamlar til leksikasining shakllanishiga bevosita aloqadordir.

G'ijim	O'ziga qaramaydigan, o'ziga bee'tibor odamlarga nisbatan
Olmaxon	O'zini oladigan, O'zini chetga tortadigan odam
Quyov	Zarur ishdan qochib qoladigan
Mashinasi beton	Hech kim to'xtata olmaydigan, manman odam
Strelka belgiladi	Uchrashuv belgiladi
Jirafa	Aytilgan fikrni kechroq anglaydigan odam
Yedirdi	Qoyillatdi, bopladi ma'nosida
Saqich	Odamga yopishib oladigan, holi-joniga qo'ymaydiganlarga nisbatan
Patina yuldi	Urushdi, adabini berib qo'ydi
Qulog'iga tepidi	Aldadi
Bortini berdi	Orani ochiq qildi (sevishgan jufliklardan birortasi munsabatlarni uzsa, bunday holatga nisbatan ishlatiladi)
Klass	Ajoyib, zo'r
Sigir	Qizlarga ko'p pul sarflaydigan yigitlar
Stalba	Gapni kechroq fahmlaydigan

Shu kabi so'zlar hozirgi kunda o'zbek yoshlari nuqtida faol qo'llanilayotgan sleng so'zlardir. Slenglarning shunday jihati borki, ular ma'lum vaqtlar o'tgach, iste'moldan chiqib ketishi mumkin va uning o'rinini yangi bir muqobili egallaydi.

So'zlashuv nutqi gaplashuvchilarining bevosita, dialogik formada so'zlagan betakalluf, erkin nutqidir. Ushbu nutq til materiallariga ko'ra adabiy, dialektal, oddiy nutq yoki qorishiq ko'rinishlariga ham ega bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib sleng-so'zlashuv nutqiga xosligi ko'rsatib o'tamiz. Ijtimoiy yoki professional ravishda ajratilgan guruhning nutqi: (jargon, oddiy) og'zaki leksikaga xos so'zlar. So'zlashuv uslubida ishlatilish doirasi chegaralangan qatlamga doir lug'aviy birliklar turlicha bo'ladi. Chegaralangan qatlam territoriyaga, kasb- korga tegishliligi bilan farqlanadi. Shuni hisobga olib, jargonlarga xos bo'lgan so'zlarni o'rganish, o'zbek so'zlashuv nutqida qanday imkoniyatlar borligini aniqlash uchun dialektlarga, shevalarga, fantexnikaga, kasblarga tegishli so'zlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlashuv uslubida qo'llanish doirasiga ko'ra jargonlar quyidagi chuqurlarini ajratish mumkin:

Slenglarning ko‘p so‘zlari va iboralari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushinarsiz bo‘ladi. Chunki aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Slenglarga uslubiy baho berilar ekan, ham ijobiy, ham salbiy munosabatga duch kelamiz. Ayrim olimlar sleng tilning adabiy normalariga qarshi qo‘llaniluvchi so‘zlar deb ta’riflaydi.

Boisi slenglarning adabiy tilda ma’lum sinonimlari mavjud bo‘ladi, ularning o‘rniga qo‘pol, hazil mazmunidagi faqat shu ijtimoiy guruhgagina tushunarli bo‘lgan so‘zlar qo‘llaniladi.

Ayrim olimlar, xususan, T.I. Arbekova slengni izohlar ekan, turg‘un birikma bo‘lib, hissiy bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadigan til birliklari slengni tashkil qiladi, deydi [3]. O‘zbek tilida slenglar chuqur tadqiq qilinishi, sleng namunalarini bir lug‘atga birlashtirish tilshunosligimiz uchun katta yangilik bo‘ladi. Avvalambor, ishni slenglarni batafsil tadqiq qilishdan boshlashimiz kerak.

Chunki har bir tilning xususiyatlaridan kelib chiqib, uning birliklari tasniflanadi va bir umumiy sistemaga birlashtiriladi. Xususan, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan sleng so‘zlarning qator xususiyatlari mavjud:

1. Aksariyat slenglar o‘sha tushunchani boshqa bir tushunchaga o‘xshatish orqali hosil qilingan.

2. Slenglar so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan ichki, salbiy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ko‘rinib turibdiki, slenglar doimo subyektiv munosabat ifodalaydi.

So‘zlovchining ironiyali simpatiyasini ifodalaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, slenglar yoshlar orasida faol qo‘llaniladigan so‘zlar ekan, ularda sleng faqat yoshlar orasida bo‘ladi. Boshqa tillarda slenglar faqat yoshlar doirasi bilan chegaralanib qolmagan, ularda yoshi katta qatlam ham slenglardan foydalanishadi. O‘zbek tilida esa sleng faqat yoshlar bilan chegaralagan. Tilning lingvokulturologik jihatiga e’tibor qaratsak, bizda yoshlar hech qachon kattalarga nisbatan ironiya, kinoya munosabatida gapirmaydi, andisha qiladi.

3. Slenglarning qo‘llanilishi makon nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Masalan, yoshlarning internetda qo‘llaydigan slenglari, ta’lim muassasalarida qo‘llaydigan, ko‘cha-ko‘yda qo‘llaydigan slenglari.

4. Slenglar vaqtlar o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Ya’ni ular hech qachon turg‘un bo‘lmaydi.

Yangi avlod shakllanishi bilan ular ham o‘zlarining sleng so‘zlarini yaratadi va aksincha, ulardan oldingi avlod qo‘llagan slenglar esa eskiradi va muomaladan chiqadi. Shuningdek, ayrim hollarda slenglar ko‘p qo‘llanilib, uning ma’nosi hammaga tushunarli bo‘lib qoladi. So‘ngi yillarda yoshlar tili fonomen tildek va madaniyatni egallashga yana va yana kuchli ta’sir ko‘rsatib bormoqda: jargonlar nafaqat so‘zlashuv nutqiga faol kirib kelmoqda va yana OAV vositalarida ham keng qo‘llanilib bormoqda, zamonaviy adabiyotning yetakchi uslubiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan til va nutq madaniyatida qator dolzarb muammolar mavjud bo‘lmoqda. Demak, til aniq ijtimoiy xarakterga ega va ko‘p jihatdan uning rivojlanishini aniqlab, ijtimoiy funksiyalari uning tuzilishiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Tilni ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, til va jamiyatning o‘zaro ta’siri turli ijtimoiy qatlamlarda, xususan, ijtimoiy va professional guruhlarda tilning ishlashini o‘rganmasdan hal etilishi mumkin emasligini ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, tilni sotsial jihatdan tadqiq qilish tilshunosligimiz, xususan, sotsiolingvistika uchun yangi ilmiy xulosalar tomon yetaklaydi.

Tilning taraqqiyotiga, undagi turli o‘zgarishlarga ijtimoiy hayotning ta’siri katta.

Sotsiolektlarning o‘zbek tilida o‘ziga xos jihatlarni namoyon qilishini yuqorida keltirilgan namunalar misolida ko‘rib chiqdik. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan slenglar boshqa tillardagiga nisbatan ancha obrazli ekanligi, tilimizni yorqin va jonli aks ettirishini ko‘rib chiqdik.

#### **REFERENCES**

1. M.M. Qurbonova, N.S. Sayidiraximova, G. Iskandarova “Sotsiolingvistika” o‘quv uslubiy majmua. Toshkent – 2017.
2. Allamurodova Sabohat Ibodullayevna. “O‘zbek va ingliz tillari kelsik boyligining taraqqiyoti aspektlari tahlili” //Dissertatsiya. Samarqand.
3. M Kurbanova, Matn nazariyasining dolzarb muammolari 6. O'zMU xabarлари, 2016
4. Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T. O‘zbek tilining funksional stillari. Samarqand: SamDU, 1984, 7-bet.
5. B.O‘rinboev. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslubi. Toshkent, 1991, 25-bet. 6. Abdusaidov A. Nutq mahorati. Samarqand, 2015, 92-b.
6. B.O‘rinboev. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslubi. Toshkent, 1991, 10-b. 8. Mirmuhsin. Temur Malik. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tom. Toshkent, 2020, 332-b